

**BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA GRAFIK
ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
XUSUSIDA**

Karimov I.

*Qo'qon davlat universiteti Texnologik ta'lim
va kutubxonashunoslik kafedrası professori, p.f.n.*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19828394>

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda grafik organayzerlardan foydalanishni o'rgatish haqida uslubiy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: grafik organayzerlar, ularning vazifasi, qo'llanilishi, foydasi; grafik organayzerlardan foydalanishdagi muammo va yechimlar.

Аннотация: В статье представлены методические рекомендации по обучению будущих учителей использованию графических органайзеров.

Ключевые слова и выражения: графические органайзеры, функции, применение; проблемы использования графических органайзеров и пути их решения.

Annotation: The article presents methodological recommendations for future teachers to teach how to use graphic organizers.

Keywords and expressions: Graphic organizers, functions, application and benefits; problems in using graphic organizers and their solutions

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, bilimlarni tizimlashtirish hamda o'quv materialini chuqur anglashni ta'minlash asosiy metodik vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, grafik organayzerlar o'quv materialini strukturaviy ko'rinishda ifodalashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Biroq ushbu vositalarning amaliyotga to'liq va samarali tatbiq etilishi bir qator pedagogik muammolarni yuzaga keltiradi.

Asosiy qism. Grafik organayzerlar o'quvchilarda tahliliy fikrlash, ma'lumotlarni tizimlashtirish, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, mustaqil fikrlash va muammoni hal etish, axborotni vizual idrok etish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu vositalar ta'limni vizuallashtirish orqali o'quv jarayonini qiziqarli, tushunarli va o'zlashtirishga qulay qiladi.

Shuningdek, murakkab mavzularni ixcham shaklda aks ettirish o'quvchilarning bilim barqarorligini oshiradi.

Avvalambor grafik organayzerlar haqida umumiy tushunchaga ega bo'laylik.

Grafik organayzerlar – ta'lim, menejment va boshqa sohalarda ta'lim jarayonini jadval va grafiklar yordamida tashkil etish va boshqarishga imkon beradigan vositalardir. Ular ta'lim dasturlarini tuzish, amalga oshirish, monitoring qilish va optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Grafik organayzerlar ta'lim samaradorligini oshirishga, resurslar va vaqtdan unumli foydalanishga imkon beradi.

Vazifasi: Ta'lim jarayonini jadval va grafiklar ko'rinishida tashkil etish va boshqarish.

Qo'llanilishi: Ta'lim dasturlarini tuzish, amalga oshirish, monitoring qilish va optimallashtirish.

Foydasi: Ta'lim samaradorligini oshiradi, resurslar va vaqtdan samarali foydalanishni ta'minlaydi, sifatliroq ta'limga va o'quvchilarning muvaffaqiyatiga erishishga yordam beradi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda pedagoglar ham tinim bilmay ishlamoqdalar. Shuning uchun ham ta'lim tashkilotlarida turli xalqaro tajribalarni o'rganib, ayni bugun ta'lim bozorida haqiqiy mutaxassislarni, kadrlarni taqdim etish uchun talab o'rganilmoqda. O'qituvchining asosiy faoliyati komil insonga ta'lim va tarbiya berishdan iborat ekan, ana shu kadrlarni yetkazib berishda faoliyat yurgizuvchi oliy ta'lim o'qituvchisi zimmasiga yanada ulkan vazifalar yuklanishi aniq. Bu vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs, o'qituvchi, malakali kadrlarni tayyorlashga har tomonlama haqli va munosib bo'lishi va ana shu vakolatga ega bo'lishi lozim. Ana shunday vakolatga ega bo'lish huquqini pedagogning kasbiy kompetensiyasi belgilab beradi. Kompetensiya – lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida “munosib”, “to'g'ri keladi” yoki “mos keladi” kabi ma'nolarni anglatadi. O'z bilimi, mahorati va amaliy tajribalarni qo'llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib mutaxassis deb tushunsa bo'ladi. Avvalo o'qituvchi o'z bilimini ta'lim oluvchiga yetkazib bera olishi darkor. Bu ham alohida kompetensiya hisoblanib, bugungi kunda ta'lim berishning turli metodlarini kuzatishimiz mumkin. Uslubshunos olim Nikandirov “O'qitish metodlari bu darsda o'quvchilarning bilish faoliyatlarini boshqarish usullardir” deb ta'kidlaydi. Ayniqsa interfaol metodlar ta'lim metodlarining bugungi kundagi eng yorqin namunasi bo'ladi. Interfaol metodlarining eng keng tarqalgan turi grafik organayzerlardir. [18,504]

Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish muammosi Psixologik-pedagogik qonuniyatlar sabab kelib chiqadi, ularga ko'ra o'qitishdagi ko'rgazmalar, nafaqat surat vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajarigan taqdiridagina o'zlashtirish unumdorligini oshiradi. Bunga aynan grafik organayzer sifatida odatda rangli bajarilgan, kognitiv – grafik o'quv elementlari (rasmlar bloki) xizmat qiladi. Bunda rasmlar, ahborotning asosiy bosh elementi hisoblanadilar. Bu esa: Birinchidan, o'quvchining ko'rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ya'ni o'rganish jarayoniga miyaning tasviriy o'ng yarim shari boy imkoniyatlari qo'shiladi. Ikkinchidan, o'quv materiali mazmunini o'zida zich joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi surat (rasm), o'quvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi. Uchinchidan rangli suratlar, o'quv informasion materialni qabul qilinish va eslanish samarasini oshiradi, hamda o'quvchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Insonning bilim olishi, fikrlashning xuddi ikkita mexanizmdan foydalanganidek bo'ladi: ularning biri simvulli bo'lsa, ikkinchisi geometrik (algebraik) bo'ladi. Grafik organayzerlarning asosiy vazifasi bilim olish jarayonining faollashtiruvchi fikrlashning simvulli va geometrik (algebraik) mexanizmlarni o'z ichiga olgan, bilim berishni uyg'unlashgan modellarini yaratishdan iboratdir. Grafik (ko'zga ko'rinuvchi) axborot miyaning o'ng yarim shari imkoniyatlarini faollashtiradi, oliy ma'lumotli mutaxassis uchun zarur bo'lgan, tasviriy fikrlash qobiliyatini, intuisiyasini rivojlantiradi. Buyuk olim A.Eynshteyn aytganidek «intuisiya haqiqatda eng katta boylikdir. Mening ishonchim komilki, bizning fikrlashimiz asosan simvollar orqali shu bilan birga biz anglamasdan kechadi». Haqiqatdan ham ko'rgazmali axborot og'zaki axborotdan ko'ra, ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining axborotni qabul qilish qobiliyati, eshitishnikidan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga, inson qabul qilinadigan axborotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali axborot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun axborotni qabul qilish va eslashga og'zaki axborotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marta tezroq kechadi. Insonning ko'rgazmali axborotdan ta'sirlanishi, og'zaki axborotdan ko'ra ancha yuqori bo'ladi. Ko'pchilik hollarda u oxirgisini o'tkazib yuboradi. Ko'rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir. Odamning ko'rgazmali axborotga ishonchi, og'zaki axborotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun «yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir» deb bejiz aytilmagandir. Shu bilan birga, ko'rgazmali axborotda, qabul qilish va eslash unumi, uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi, og'zaki axborotning o'zlashtirilishi esa bunga

bog'liq bo'ladi. O'rni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko'rgazmali axborotni qabul etish, o'qitish samarasini oshiradi. Shuning uchun o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan axborotni ko'paytirishga shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa, o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O'qituvchilar ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanishda odatda quyidagi pedagogik muammolarga duch kelishlari mumkin.

1. O'qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi. Ko'plab o'qituvchilar grafik organayzerlarning turlari, ular bilan ishlash metodikasi yoki qaysi mavzularda qaysi organayzerlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini to'liq bilmaydi. Bu esa organayzerlardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

2. Vaqtning yetarli bo'lmasligi. Grafik organayzerlar ko'pincha dars jarayonida qo'shimcha vaqt talab etadi. Shu bois o'qituvchilar dars jarayonida ulardan ko'p foydalanmaydilar.

3. O'quvchilarning tayyorgarlik darajadagi farqlar. Ba'zi o'quvchilar organayzerlardan foydalana olish mahoratini tez egallagan bo'lsa, ayrimlari uchun vizual fikrlash yoki strukturaviy tasavvur qilish jarayoni murakkab kechadi. Bu esa sinfda dars jarayonini borishi turli talabalarda (yoki kichik guruhlarda) turlicha kechishiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Resurslar va texnik vositalarning yetishmasligi. Ayrim ta'lim muassasalarida kompyuter, interfaol doska yoki printer kabi texnik vositalarning cheklanganligi grafik organayzerlarning qo'llanilishini qiyinlashtiradi.

5. Organayzerni noto'g'ri tanlanishi. Har bir mavzu uchun mos bo'lgan grafik organayzerni tanlash muhim. Noto'g'ri tanlov o'quv materialini chalkashib ketishiga va o'quvchilarning tushunmay qolishiga olib kelishi mumkin.

Grafik organayzerlarni ta'lim jarayonida qo'llashda yuzaga kelishi mumkin

bo'lgan, yuqorida sanab o'tilgan muammoni hal etish uchun quyida ayrim tavsilyalarni keltirishimiz mumkin:

Pedagogik muammo	Taklif etilayotgan yechimlar
-------------------------	-------------------------------------

O'qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • O'qituvchilar uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil qilish, grafik organayzerlardan samarali foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar berish. • Tajribali o'qituvchilar bilan tajriba almashish, mentorlik tizimini yo'lga qo'yish. • Bosqichma-bosqich qo'llaniladigan metodik ko'rsatmalar yaratish
Vaqtning yetarli bo'lmasligi	<ul style="list-style-type: none"> • Dars rejasini qayta ko'rib chiqish, grafik organayzerlarni muhim va samarali bo'lgan qismlarda ishlatish. • O'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berish, uy vazifasida organayzerdan foydalanish. • Organayzerlarni oldindan tayyorlab qo'yish, vaqtni tejash.
O'quvchilarning tayyorgarlik darajadagi farqlar	<ul style="list-style-type: none"> • Differensial yondashuv: organayzerlarni murakkablik darajasiga qarab turlicha berish. • Guruhlarda hamkorlik asosida ishlash, tajribali o'quvchilar yordamida zaif o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash. • Bosqichma-bosqich qo'llanma va ko'rsatmalar berish.
Resurslar va texnik vositalarning yetishmasligi	<ul style="list-style-type: none"> • Oddiy materiallardan (qog'oz, marker, rangli qalamlar) foydalanish. • Raqamli resurslar (kompyuter, planshet, interfaol doska) imkoniyati bo'lmasa, devor jadvali yoki kichik kartochkalar bilan ishlash. • Onlayn tayyor organayzer shablonlaridan foydalanish (PDF, Google Jamboard, Canva).
Organayzerlarni noto'g'ri tanlanishi	<ul style="list-style-type: none"> • Dars maqsadi va mavzuni aniqlab, mos organayzer turini tanlash (Venn diagrammasi, g'oya xaritasi, jadval, sabab-natija sxemasi va h.). • O'quvchilarning yosh va bilim darajasini hisobga olish. • Sinov darsi yoki kichik amaliy mashq orqali organayzerning samaradorligini tekshirish.

Xulosa. Yuqorida aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, grafik organayzerlarni qo'llashda eng asosiy narsa – ularni “ko'rinadigan fikr” sifatida ishlatish va har bir talaba va o'quvchini faol ishtirok etishini ta'minlashdir. Shu bilan birga, o'qituvchi moslashuvchan bo'lishi va turli murakkablik darajalariga tayyor bo'lishi kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Texnologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish: O'quv qo'llanma. T., 2019. – 100 b.
2. Soatova Sh. A., Yusupova G.O. Zamonaviy ta'lim sharoitida grafik organayzerlarning o'rni va foydalanish usullari /March 13, 2024 International scientific and practical conference "Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches". – P. 504-508.
3. Wim Jochems, Jeroen van Merriënboer and Rob Koper "Integrated E-learning implications for pedagogy, technology and organization" This edition published in the Taylor & Francis eLibrary, 2004.
4. <https://www.mindonmap.com/uz/blog/what-is-a-graphic-organizer/>
5. <https://oefen.uz/ru/documents/referatlar/umumiy/boshlang-ich-ta-limda-grafik-organayzerlaridan-foydalanish>